

## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING FAOLIYATIDA REJALASHTIRISHNING TARTIBI VA AHAMIYATI

*Salimjonov Bekzodjon A'zamjon o'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi*

*3-kurs 316-guruh kursanti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada profilaktika inspektorlari o'z faoliyatida rejalashtirish tushunchasi, tuziladigan rejalarning turlari va ularni tuzish tartibi, profilaktika inspektorlarining bugungi kunda faoliyatni rejalashtirishning holati, ular tomonidan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf etishning ayrim chora-tadbirlari aks ettirilgan

**Kalit so'zlar:** reja, rejalashtirish, profilaktika, huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, kunlik reja, oylik reja, choraklik reja.

Muayyan tarixiy bosqichda mavjud bo'lgan jinoyatchilikning tez orada yo'qolishi haqidagi tasavvurlar, xuddi shuningdek, ushbu salbiy hodisani butunlay yoki asosan jinoiy-huquqiy choralar yordamida bartaraf etish, jinoyatlar profilaktikasining istiqbolli uzoq muddatga mo'ljallangan rejalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, har qanday faoliyat, xususan huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish jarayonlari bevosita rejalashtirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'z navbatida muhim ahamiyatga ega.

Ta'kidlash lozimki, normativ-huquqiy hujjatlarda mahalla huquq-tartibot maskanini tashkil etilishi bilan bir qatorda ularning asosiy vazifalari va funksiyalari, shu bilan birga uning tarkibiga kiritilgan subyektlarning asosiy vazifalari ham belgilab berildi.

Shu boisdan yuqoridagilarga asoslangan holda mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida profilaktika inspektorlari tomonidan faoliyatni samarali tashkil etish maqsadida quyida rejalara tuziladi:

- kunlik reja;
- oylik reja;
- choraklik reja;
- yillik rejalar.

Kunlik rejada profilaktika inspektorining tuzgan oylik rejasi hamda rahbar tomonidan berilgan kunlik topshiriqlar aks ettiriladi. Kunlik reja profilaktika inspektorining shaxsan o'zi tomonida tuziladi va rahbar tasdiqlab beradi. Profilaktika inspektorlari kunlik rejaga kiritilgan chora-tadbirlarni amalga oshirganligi yuzasidan

kun yakunida huquqbuarliklar profilaktikasi boshlig'iga ma'lumotnoma taqdim etadilar. Agarda kunlik rejaga kiritilgan tadbirlardan birortasi amalga oshmay qolsa, keying kunlik rejaning birinchi bandiga kiritiladi.

Oylik rejada esa hududdagi kriminogen vaziyatni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak bo'lgan profilaktik chora-tadbirlar hamda choraklik rejada amalga oshirilishi belgilangan tadbirlar aks ettiriladi. Oylik reja profilaktika inspektori tomonidan o'zining ma'muriy hududidagi vaziyatdan kelib chiqib tuziladi va rahbarga tasdiqlatiladi. Profilaktika inspektorlari oylik rejada belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirganligi yuzasidan oy yakunida hisobot taqdim etadilar. Profilaktika inspektorining hisobotini eshitish bo'yicha o'tkaziladigan yig'in fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) tomonidan olib boriladi. Yig'in bayonnomasi fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli), fuqarolar yig'ini mas'ul kotibi, ichki ishlar organining ushbu hududga mas'ul etib birlashtirilgan rahbari tomonidan imzolanadi.

Choraklik rejada asosan bo'lishi mumkin bo'lgan bayram tadbirlari, jinoyatchilikni oldini olish va unga barham berish bo'yicha amalga oshiriladigan profilaktik chora-tadbirlar o'z aksini topadi. Profilaktika inspektorlari tomonidan choraklik rejada amalga oshirgan chora-tadbirlarining natijasi har chorak yakunida tahlil qilib boriladi hamda ularning faoliyatlari baholanadi. Bunda yetarli ballni to'play olmagan xodimga nisbatan intizomiy chora ko'rish ishlari amalga oshiriladi.

Ta'kidlash lozimki, IIV ning buyruqlarida mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini natijalari yuzasidan profilaktika inspektorlari tomonidan oylik, choraklik, yarim yillik, to'qqiz oylik va yillik hisobotlar tayyorlash va taqdim etilishi tartibi belgilab berilgan edi. Bu tartib o'z navbatida mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatiga ham tatbiq etilidi. Darhaqiqat, ichki ishlar organlarining eng quyi tizimi hisoblangan Maskanlar faoliyati muntazam faoliyat yuritishi uchun reja o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Rejalashtirish avvalambor, hududdagi kriminogen vaziyatdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan ishni oldindan o'ylashni va uni tizimli yo'lga qo'yishni nazarda tutadi, shuningdek tahliliy fikrlashni talab qiladi hamda profilaktika xizmati tizimi, ya'ni uning subyekti va obyektining birgalikda rivojlanish istiqbollari va kelajakdagi holatini belgilab beradi. Noto'g'ri va ishonchsiz axborot sababli yanglish qaror qabul qilish xavfini kamaytirish uchun asoslangan va tizimlashtirilgan rejali qarorlar ishlab chiqiladi. Rejalashtirish tizimning umumiy maqsadlarini birlashtirishga xizmat qiladi.

Keng ma'nodagi rejalashtirish bu – boshqaruv qarorini ishlab chiqish va uni qabul qilish faoliyati bo'lib, u quyidagilarni qamrab oladi:

- asoslangan maqsadlar yig'indisi;
- asosiy yo'nalishni belgilash;
- bajariladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- ushbu maqsadlarga yetishishning usullari;

- bajariladigan tadbirlar muddatlari va ijrochilari;
- istiqbolli qarorlar qabul qilish uchun asos yaratish.

Profilaktika katta inspektori maskan faoliyatini takshkil etishda umumiy rahbar sifatida belgilangan bo'lsa, rejalashtirish o'z navbatida uning huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishdagi boshqaruv qarori bilan tenglashtirilishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini to'g'ri rejalashtirishning muhim omili bu uning avvalgi faoliyatini tahlil qilishdir. Chunonchi, maskanda amalga oshirilgan ishlar, ularning natijalari va yo'l qo'yilgan kamchiliklar tahlil qilinmas ekan, maskanning keyingi faoliyatini to'g'ri rejalashtirib bo'lmaydi. Demak, tahlildan kelib chiqib maskanning kelgusidagi faoliyati rejalashtiriladi. Bu esa maskanning faoliyatini takomillashtirish, samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, mahalla huquq-tartibot maskani faoliyati tahlili va u asosida ishlab chiqilgan rejalarning ijrosini ta'minlanishi huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini oshirishga, ularning sodir etilishi sabablari va imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda o'z vaqtida bartaraf etishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T., 2014. – 44 b.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008. – 176 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – T., 2014.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2014. – 408 b.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi. – T., 2014. – 408 b.
6. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni. // URL: <http://www.lex.uz>.
7. O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida» qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T., 2010. – № 39. – 341-m.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – № 6. – 70-m.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5005-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – № 15. – 243-m.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 apreldagi «Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2883-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – № 15. – 247-m.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi «Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2898-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – № 17. – 290-m.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi «Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3216-sonli Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 12 iyundagi «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida surishtiruv va dastlabki tergovni tashkil etish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida»gi 100-sonli buyrug'i // URL: <http://www.lex.uz>.

14. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 12 iyuldagi «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» gi 151-sonli buyrug'i // URL: <http://www.lex.uz>.

15. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 25 avgustdagi «Ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida»gi 191-sonli buyrug'i // URL: <http://www.lex.uz>.

16. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 6 sentyabrdagi «Ichki ishlar organlari tayanch punktlari profilaktika inspektorlarining hisobotini fuqarolar yig'inlarida eshitish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 193-sonli buyrug'i // URL: <http://www.lex.uz>.